

Payg'ambarlar qissasi: Ibrohim butlarni sindiradi



18:36 / 07.10.2018 4270

(davomi)

4

Hayit kuni keldi. Odamlar xursand bo'ldilar. Odamlar hayitga chiqishdi, bolalar ham chiqishdi. Ibrohimning otasi ham chiqdi. Ibrohimning otasi Ibrohimga: "Biz bilan chiqmaysanmi?" dedi. Ibrohim: "Men kasalman", dedi. Odamlar ketdilar, Ibrohim esa uyda qoldi. Ibrohim butlarning oldiga keldi va butlarga: "Gapirmaysizlarmi? Eshitmaysizlarmi? Bu ovqat va ichimlik! Uni yemaysizlarmi? Ichmaysizlarmi?" dedi.

Butlar sukut qilib jim turar edi. Chunki ular toshdan edi va gapirmas edi. Ibrohim: **(Nima uchun gapirmayapsizlar?)** dedi. Butlar gapirmasdan jim turishdi. Shunda Ibrohim g'azab qilib, boltani oldi-da, butlarni bolta bilan urib, ularni sindirdi. Ibrohim katta butni sindirmadi, butunicha qoldirdi va boltani uning bo'yniga ilib qo'ydi.

5

Bu kimning ishi?

Odamlar qaytib, butlar bor uyga kirdilar. Odamlar butlarga sajda qilishni istadilar chunki bugun hayit kuni edi. Lekin odamlar taajjubga va dahshatga tushishdi.

Odamlar afsuslanishdi va g'azabga kelishdi.

59. Ular: «Bizning xudolarimizga kim bunday qildi?! Albatta, u zolimlardandir!» dedilar.

60. Ular: «Ularni eslab yurgan bir yigitni eshitgan edik, uni Ibrohim, deyishardi», dedilar.

61. Ular: «Uni odamlarning ko'z oldiga olib kelinglar. Toki guvoh bo'lsinlar», dedilar.

62. Ular: «Xudolarimizga buni sen qildingmi, ey Ibrohim?!» dedilar.

63. U: «Yo'q, buni manavi, ularning kattasi qildi. Agar gapiradigan bo'lsalar, ulardan so'rab ko'ringlar», dedi. (Anbiyo surasi).

Odamlar bilar edilarki, albatta butlar toshdan edi. Va yana bilar edilarki, tosh eshitmaydi ham, nutq ham qilmaydi. Va yana bilar edilarki, katta but ham toshdan edi. Katta but yurishga ham, harakatlanishga ham qodir emas edi. Va albatta, katta but butlarni sidirishga ham qodir emas edi. Ibrohimga: "Sen bilasanki, butlar gapirmaydi", deyishgan edi, Ibrohim: "Qanday qilib butlarga ibodat qilyapsizlar? U zarar ham, foyda ham bermasa, nimaga unga ibodat qilyapsizlar? Qanday qilib butlardan so'rayapsizlar? Axir ular gapirmaydi ham, eshitmaydi ham-ku? Biror narsani anglamayapsizlarmi? Aql yuritmaysizlarmi?" Odamlar sukut qilib, xijolat chekdilar.

6

Sovuq olov

Odamlar to'planib: "Nima qilamiz? Albatta Ibrohim butlarni sindirib, olihalarga xiyonat qildi", deyishdi. Ba'zilar: "Ibrohimning iqob va jazosi nima?" deb so'rashdi. Javob shunday edi:

Ular: «Uni kuydiringlar! Agar (bir ish) qiladigan bo'lsangiz, xudolaringizga yordam bering!» dedilar.

(Shuningdek: olov yoqinglar va unga Ibrohimni tashlanglar, deyishdi).

Lekin Alloh Ibrohim (a.s.)ga yordam berdi va olovga dedi:

Biz: «Ey olov, Ibrohim uchun salqin va salomatlik bo'li!» dedik. Shunday ham bo'ldi, olov Ibrohim (a.s) uchun salqin va salomatlik bo'ldi. Odamlar ko'rishdiki, Ibrohim (a.s.)ga olov zarar bermadi. Va yana odamlar ko'rishdiki,

Ibrohim (a.s.) xursand va sogʻ-salomat edilar. Odamlar bundan dahshatga tushdilar va hayron boʻldilar.